

**RAQAMLI BANK XIZMATLARI ORQALI MOLIYAVIY
XIZMATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI
KENGAYTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI**

Xurramova Fotima Bahodir qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Bank ishi va audit” yo’nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli bank xizmatlari orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida raqamli bank xizmatlarining aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun moliyaviy xizmatlarga kirish darajasini oshirishdagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari hamda mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda texnologik, institutsional, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘un holda rivojlanishi zarurligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, onlayn banking, mobil banking, SMS banking, raqamli hamyonlar, fintech, blokchain va kriptoalyutalar, gibrid banklar.

**ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ
РАСШИРЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ
УСЛУГ ПОСРЕДСТВОМ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ СЕРВИСОВ**

Хуррамова Фотима Бахадир кизи

Деновский институт предпринимательства и педагогики

«Банковское дело и аудит», 3 курс

Аннотация: В данной статье исследуются организационно-экономические механизмы расширения возможностей использования финансовых услуг посредством цифровых банковских сервисов. В процессе исследования проанализирована роль цифровых банковских услуг в повышении уровня доступа населения и хозяйствующих субъектов к финансовым услугам. Кроме того, определены основные направления развития банковских услуг на основе цифровых технологий, выявлены существующие проблемы и разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на их устранение. По результатам исследования обоснована необходимость комплексного развития технологических, институциональных, социальных и

экономических механизмов для расширения возможностей использования финансовых услуг.

Ключевые слова: цифровая экономика, онлайн-банкинг, мобильный банкинг, СМС-банкинг, цифровые кошельки, финтех, блокчейн и криптовалюты, гибридные банки

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR EXPANDING ACCESS TO FINANCIAL SERVICES THROUGH DIGITAL BANKING SERVICES

Xurramova Fotima Bahodir qizi

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

“Banking and Audit,” 3rd Year Student

Abstract: This article examines the organizational and economic mechanisms for expanding access to financial services through digital banking services. The study analyzes the role of digital banking services in increasing access to financial services for the population and business entities. In addition, the main directions for the development of banking services based on digital technologies are identified, existing problems are revealed, and scientifically grounded proposals and recommendations aimed at addressing them are developed. The results of the study substantiate the need for the integrated development of technological, institutional, social, and economic mechanisms to expand access to financial services.

Keywords: digital economy, online banking, mobile banking, SMS banking, digital wallets, fintech, blockchain and cryptocurrencies, hybrid banks.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining transformatsiyasi moliyaviy xizmatlar bozorida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli bank xizmatlari orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy bank tizimida moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'plab omillar, jumladan hududiy cheklovlar, xizmatlar narxining yuqoriligi hamda vaqt talablari bilan chegaralangan. Natijada aholining ayrim qatlamlari va kichik biznes subyektlari bank xizmatlaridan to'liq foydalana olmayapti. Raqamli bank xizmatlari esa ushbu muammolarni bartaraf etishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Mobil banking, internet banking va elektron to'lov tizimlari orqali moliyaviy xizmatlar masofadan turib, tezkor va qulay shaklda taqdim etilmoqda. Bu esa moliyaviy xizmatlarning ommalashuviga hamda iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda

O‘zbekistonda ham bank tizimini raqamlashtirish, zamonaviy to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ushbu yo‘nalishda hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo‘lib, ularni ilmiy asosda tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan to‘lovlar va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish jarayoni huquqiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, 2020-yil 5-oktabrda tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashning ustuvor maqsadva vazifalarini o‘zida mujassam etgan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “iqtisodiyotning real sektorida hamda McKinsey’s moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirishdarajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish”¹ ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bank tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berib, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va ularning ommalashuvini ta‘minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, innovatsion yechimlarni keng qo‘llash orqali banklar faoliyati samaradorligini oshirishga zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish hamda tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etishda muhim rol o‘ynamoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslari ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. L.V.Lyamin "Bank hisobvarag‘iga masofaviy xizmat ko‘rsatish - bu mijozning ko‘rsatmasi asosida bankka bormasdan turib, uning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish va axborot xizmatlari majmuasidir"² deb yozadi.

Mahalliy olimlarimizdan prof. Sh.Z.Abdullayevaning³ masofaviy bank xizmatlari to'g'risidagi fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular axborot texnologiyalarining rivojlanishi internetda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini kengaytirayotganligi, ilg'or firmalar va tijorat banklari bugungi kunda bu imkoniyatdan foydalangan holda mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish, elektron pullar hisobini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'layotganligiga, mamlakatimiz tijorat banklarida bank hisob-varaqlarini masofadan turib boshqarishni rivojlantirish kunning muhim masalalaridan biri ekanligiga e'tibor qaratgan. Prof. Sh.Z.Abdullayevaning tijorat banklari masofaviy xizmatlarida axborot texnologiyalar rivojlanishi, banklar va aynan ilhor zamonaviy internet xizmatlarini ko'rsatuvchi firmalar bilan hamkorlik masalasining muhim jihatlari mavjudligini bugungi kunning talablari ko'rsatmoqda. Chunki banklar o'zi bu sohada faoliyat olib borgandan ko'ra maxsus xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning xizmati ancha samarali bo'lishi mumkin.

Tijorat banklarining masofaviy xizmatlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borgan mahalliy olimlarimizdan yana biri Z.T.Mamadiyarovning fikricha, «...bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan, odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi, ikkinchidan, bank operatsiyalarning avtomatlashtirilgani bilan bog'liq»⁴. Biz bank xizmatlarining rivojlanishi, jumladan, insonlar hayotini yengillashtiruvchi masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi sohasida tadqiqotchi Z.T.Mamadiyarov tomondan keltirilgan fikrni qo'llab-quvvatlaymiz. Jahonda, jumladan, mamlakatimizda ham axborot texnologiyalarning rivojlanishi banklarning masofaviy xizmatlarining ham rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Biz ushbu muallifning keltirgan fikriga qo'shimcha ravishda ta'kidlamoqchimizki, aynan globallasuv jarayonlari banklarning masofaviy xizmatlarining rivojlanishi, ularning ommalashuvi va keng ko'lamda har yili yangi turdagi xizmat turlarining ko'payishiga zamin yaratmoqda.

² Лямин Л.В. Применение технологий электронного банкинга. Рискоориентированный подход, серия Библиотека Центра исследований платежных систем и расчетов — Издательство: КноРус, 2015

³ Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 535-536 bb

⁴ Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2019. 56 b.

Mirpulatova L.M.⁵ fikricha tijorat banklarining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, bank operatsiyalarini tubdan o'zgartiruvchi vositalarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, blokcheyn va katta ma'lumotlar tahlili, jarayonlarni avtomatlashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar real vaqt rejimida ma'lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilishni qo'llab quvvatlaydi, bu esa bank ishlarining samaradorligini oshiradi. Yangi moliyaviy texnologiyalar moliyaviy xizmatlardan foydalanishni osonlashtirishi va moliya tizimining samaradorligini oshirishi mumkin. Raqamli bank xizmatlari bir necha soniyalarda amalga oshishi va kam xarajatli ekanligi bilan an'anaviy banklardan farq qiladi. Raqamli banklar doimiy, ya'ni 24/7 ish rejimida faoliyat yuritishi va mijozlarning katta qismiga bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatishi evaziga tijorat banklari samaradorligining ortishiga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot — bu moliyaviy va iqtisodiy munosabatlarni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirishga yo'naltirilgan tizim bo'lib, unda bank xizmatlari, to'lov tizimlari va moliyaviy operatsiyalar elektron shaklda tezkor va qulay tarzda bajariladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli bank xizmatlari orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usullari asosida mavzuga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi. Taqqoslash usuli yordamida xorijiy tajriba va milliy amaliyot o'zaro solishtirildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va iqtisodiy tahlil qilish orqali raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari baholandi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi hamda ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatida innovatsion xizmatlarni joriy etishning iqtisodiy samarasi bo'lib, xarajatlar hajmini kamayishi, mijozlar uchun foydalanish qulay bo'lgan xizmatlarni taklif etilishi natijasida mijozlar bazasini kengayishi va foyda hajmining oshishi hisoblanadi.⁶ Raqamli bank mijozlarning jismoniy bank filialiga bormasdan raqamli ravishda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonini

⁵ Mirpulatova L.M. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat – Toshkent, 2025. – 13 b.

anglatadi. Unga ko‘ra, texnologiya taraqqiyoti tufayli sezilarli darajada rivojlanib, foydalanuvchilar uchun qulaylikni oshirdi.⁷

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iste‘molchilarning talab va afzalliklari tez o‘zgarishi, xarajatlarni optimallashtirish hamda samaradorlikni oshirish bo‘yicha bosimning ortishi tijorat banklarini zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga undamoqda. Shu bilan birga, banklarda onlayn xizmatlarga bo‘lgan talabning oshishi Fintech kompaniyalarini faol ishtirokchi sifatida jalb qilishga turtki bermoqda. Bank sohasida rivojlanayotgan fintech texnologiyalari shaxsiy kreditlar, kichik biznes kreditlari va ipoteka kabi moliyaviy mahsulotlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. An‘anaviy bank konsepsiyasi esa raqamlashtirish va texnologik innovatsiyalar orqali tubdan o‘zgarib, mijozlarga qulay xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratmoqda. Hozirgi kunda mobil ilovalar mijozlarga tezkor xizmatni ta‘minlab, bankning an‘anaviy savdo menejeri rolini qisman almashtirmoqda. Bank tizimi samaradorlikni oshirish, xavfsizlikni mustahkamlash va mijozlar tajribasini yaxshilash maqsadida turli texnologiyalarni integratsiya qilgan holda yillar davomida sezilarli rivojlanishga erishdi. Hozirgi zamonaviy bank tizimida keng qo‘llaniladigan asosiy texnologiyalardan ba‘zilari quyidagilardan iborat:

Onlayn va mobil banking⁸: moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etiladigan raqamli xizmatlar bo‘lib, mijozlarga internet yoki mobil ilovalar orqali o‘z hisoblarini boshqarish, tranzaksiyalarni amalga oshirish va turli bank xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar odamlarning o‘z mablag‘lari bilan o‘zaro munosabatlarida inqilob qildi, qulaylik, foydalanish imkoniyati va pullari ustidan real vaqt nazoratini ta‘minladi.

SMS banking — bu bank mijozlariga mobil telefon orqali matnli xabar (SMS) yordamida moliyaviy xizmatlarni boshqarish imkonini beruvchi xizmat turi. Bu xizmat orqali mijozlar o‘z hisob raqamlarini tekshirishi, balansni kuzatishi, oxirgi tranzaksiyalarni ko‘rishi va ba‘zi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Blokcheyn va kriptoalyutalar⁹: innovatsiyalar, samaradorlik va shaffoflik uchun yangi imkoniyatlarni joriy qilib, bank sanoatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

⁶ Hsu, Po-Hsuan, Xuan Tian, and Yan Xu, 2014, Financial development and innovation: Cross-country evidence, *Journal of Financial Economics* 112, 116–135

⁷ Alkhowaiter, W. A. (2020). Digital payment and banking adoption research in Gulf countries: A systematic literature review. *International Journal of Information Management*, 53, 102102.

⁸ <https://gulfbusiness.com/here-are-the-top-5-tools-and-technologies-for-smart-banking/>

⁹ Shetty, M. D., & Nikhitha, M. K., (2022). Impact of Information Technology on the Banking Sector. *International Journal of Management, Technology, and Social Sciences (IJMITS)*, 7(2), 634-646


Raqamli hamyonlar: ¹⁰shuningdek, elektron hamyon yoki mobil hamyon sifatida ham tanilgan, foydalanuvchilarga turli moliyaviy faoliyatlar uchun elektron operatsiyalarni saqlash, boshqarish va amalga oshirish imkonini beruvchi virtual platformadir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda aksariyat tijorat banklari ham an’anaviy, ham raqamli (masofaviy) xizmatlarni bir vaqtning o‘zida taqdim etmoqda. Shu bilan birga, faqat masofaviy xizmatlarni ko‘rsatadigan raqamli banklar ham faoliyat yuritmoqda. Masalan, TBC Bank va Anor Bank shular jumlasidandir.

Raqamli bank xizmatlari mijozlarga faqat raqamli platformalar orqali masofaviy tarzda taqdim etiladi. Bu xizmatlarga neobanklar, onlayn banking tizimlari va mobil banking ilovalari kiradi. Ushbu xizmatlar orqali foydalanuvchilar balansni tekshirish, tranzaksiyalarni amalga oshirish, to‘lovlar va kredit operatsiyalarini masofadan bajarish imkoniga ega bo‘ladi.

An’anaviy bank xizmatlari esa filiallar tarmog‘i va xizmat ko‘rsatish markazlari (mini-banklar, ko‘chma kassa) orqali offline, mijoz bilan yuzma-yuz tarzda amalga oshiriladi. Bu xizmatlarda foydalanuvchilar bevosita bank xodimlari bilan muloqot qiladi va shaxsiy maslahat oladi.

1-rasm. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari xizmatlarining tasniflanishi¹¹



Gibrid banklar — bu bank tizimida an’anaviy xizmatlar va raqamli bank texnologiyalarini birlashtirgan yangi turdagi banklarni anglatadi. Bunday banklar

¹⁰ <https://www.startus-insights.com/innovators-guide/banking-technology-trends/>


¹¹ Mirpulatova L.M. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘llari. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat – Toshkent, 2025. – 14 b.

mijozlarga jismoniy filiallar orqali xizmat olish imkoniyatini taqdim etadi, shu bilan birga, mobil banking, internet banking va boshqa onlayn kanallar orqali masofaviy xizmatlarni ham taklif qiladi. Natijada, gibrid banklar bankning an'anaviy xizmatlarini saqlagan holda raqamli transformatsiyani amalga oshiradi, bu esa mijozlar uchun yuqori darajada moslashuvchanlik va qulaylik yaratadi.

Gibrid banklar mijozlarning turli ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lib, raqamli yechimlar bilan bir qatorda shaxsiy muloqotni ham qadrlaydigan foydalanuvchilar uchun eng maqbul xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Masalan, mijozlar oddiy kundalik operatsiyalarni mobil ilova orqali tezkor bajarishi mumkin, shu bilan birga murakkab kredit, ipoteka yoki moliyaviy maslahat olish uchun filialga murojaat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, gibrid banklar innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlarni kengaytiradi, jumladan: onlayn to'lovlar, virtual kartalar, QR orqali to'lovlar, bildirishnomalar va boshqa raqamli xizmatlar. Shu tarzda, ular moliyaviy inklyuzivlikni oshiradi, mijozlar tajribasini yaxshilaydi va raqamli iqtisodiyotga moslashadi. Natijada, gibrid banklar an'anaviy bank xizmatlari va raqamli transformatsiyani uyg'unlashtirgan holda mijozlar uchun kengroq, qulay va tezkor xizmatlarni taqdim etadigan bank modeli sifatida iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ularning mavjudligi, ayniqsa, shahar va qishloq hududlarida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi.

2-rasm. Raqamlashtirish sharoitida bank innovatsiyalarini joriy etishni hisobga olgan holda bank sektorini transformatsiyalash mexanizmi¹²

¹² Xodjimamedov A.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank innovatsiyalarini rivojlantirish masalalari. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat – Toshkent shahri, 2024. – 12 b.



Online bank va an'anaviy bank o'rtasida farqlar mavjud bo'lib ushbu farqlar bu turdagi banklarning xizmat ko'rsatish usuli, filiallari, xizmat tezligi, mijozlarga xizmat taxnologiyalari va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. (1-jadval).

Ko'rsatkich	Online bank	An'anaviy bank
Xizmat ko'rsatish usuli	Faqat internet orqali (mobil ilova yoki veb-sayt)	Filialarda hodimlar yordami orqali telefon/internet orqali
Filiallar mavjudligi	Yo'q (filiallarsiz ishlaydi)	Ha, bank binolari mavjud
Ish vaqti	24/7 (doimiy ishlaydi)	Ish kunlarida va ish soatlarida
Xizmatlar tezligi	Tezkor, real vaqt rejimida	Ba'zan sekinroq, ayrim xizmatlar navbat bilan ko'rsatiladi.
Xarajatlar va to'lovlar	Pastroq (kam operatsion xarajatlar)	Nisbatan yuqori (filiallar xarajatlari mavjud)
Texnologiyalar	Sun'iy intellekt, avtomatik tizim orqali	Asosan qo'lda bajariladi, ba'zida yarim avtomatlashtirilgan

Mijozlarga xizmat	Onlayn chat yoki avtomatik tizim orqali	Yuzma-yuz, bank xodimlari orqali
Hisob ochish	Masofadan, bir necha daqiqada	Filialga borish talab qilinadi
Xavfsizlik	Kuchli raqamlik xavfsizlik tizimlari	An'anaviy xavfsizlik chorlariga ko'proq tayanadi

1-jadval. Online bank va an'anaviy bank o'rtasidagi farqlar¹³

Online bank va an'anaviy banklar o'rtasidagi asosiy farq xizmat ko'rsatish shakli, tezligi va qulayligida namoyon bo'ladi. An'anaviy banklar mijozlarga asosan bank filiallari orqali xizmat ko'rsatadi. Bunda mijoz bankka borib, navbat kutib, xodim bilan bevosita muloqot qiladi. Ko'plab operatsiyalar (hisob ochish, kredit rasmiylashtirish, pul o'tkazish va boshqalar) qog'oz hujjatlar va vaqt talab qiladigan jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli xizmat ko'rsatish nisbatan sekinroq bo'lishi mumkin. Online banklarda esa barcha asosiy xizmatlar mobil ilovalar yoki internet orqali masofadan turib amalga oshiriladi. Mijoz bank filialiga bormasdan turib hisob ochishi, to'lovlar qilishi, pul o'tkazmalari amalga oshirishi va hatto kredit yoki omonat xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Bu esa vaqtni tejaydi va xizmatlardan 24/7 foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, online banklar xizmat ko'rsatishda avtomatlashtirilgan tizimlardan keng foydalanadi, bu esa operatsiyalarni tez va aniq bajarilishiga yordam beradi. An'anaviy banklarda esa inson omili ko'proq bo'lgani sababli jarayonlar sekinroq kechishi mumkin.

2-jadval

Banklarda innovatsion xizmat va mahsulotlarni joriy etish bo'yicha SWOT tahlili¹⁴

Strengths (kuchli tomonlari)	Weaknesses (kuchsiz tomonlari)
raqobatbardoshlikning oshishi; mijozlar bilan masofadan ishlash imkoniyati; xizmatlardan foydalanishning qulayligi(istalgan vaqtda va joyda 24/7 rejimda); bank xarajatlarining kamayishi va vaqtningtejalishi;	masofaviy xizmatlardan foydalanishning internet-tarmog'iga bog'liqligi; raqamli rejimdagi xavfsizlikmasalalari; keksa avlod vakillarining raqamlimoliyaviy xizmatlardan foydalanishgamoyilligi kamroq;

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

rentabellik darajasining ortishi.	innovatsion bank mahsulotlarigabo‘lgan ishonch darajasining pastligi.
Opportunities (imkoniyatlar)	Threats(tahdidlar)
to‘liq shaklda raqamli bank xizmatlarini taqdim etish; mahalliy banklarning tashqi bozorlar bilan integratsiyalashuvi; risklarni samarali boshqarish va CRM sohalarida rivojlanish imkoniyati; mijozlar bazasining kengayishi; tizimdagi nosozliklarni oldini olish; xavfsizlikni ta’minlash uchun zamonaviy raqamli axborot bazasining shakllanishi;	yangi tahdidlarni yuzaga kelishi; raqobatlashuvning keskinlashishi; global iqtisodiy beqarorlikni yuzaga kelishi; tartibga solishda ta’sirchanqoidalarning yo‘qligi; mijozlarning sodiqligi darajasining pastligi; fishing, sohta sahifalar.

Innovatsion bank mahsulotlarini bank tizimiga joriy etish yuzasidan SWOT tahlil amalga oshirildi (2-jadval). Ushbu tahlil orqali raqamli bankingning kuchli va zaif jihatlari, shuningdek, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy tahdidlar aniqlab olindi.

3-jadval.

O‘zbekistonda raqamli bank ko‘rsatkichlari (2023–2025 – yillar)¹⁵

Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil(pragnoz)
Bank kartalari soni(mln)	50	55	59
POS-terminallar soni (ming)	400	450	500
Bankomatlar soni (ming)	25	27	29

Bank kartalari soni 59 milliondan oshdi, POS-terminallar soni 500 mingga yaqinlashdi va bankomatlar soni 29 mingga yetdi. Bu esa naqd pul muomalasini kamaytirish va elektron to‘lovlarni ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Ilova o‘rnatish va foydalanuvchilar dinamikasi:

¹⁵ Infocom statistikasi – infocom.uz

4-jadval.**Mobil banking ilovalarini yuklab olishlari (2022-yil may va 2024-yil may)¹⁶**

Bank/ Xizmat	2022-yil may	2024-yil may
Click	5 000 000	10 000 000
Anorbank	1 000 000	5 000 000
TBC UZ	1 000 000	5 000 000
Agrobank	1 000 000	1 000 000
Ipoteka bank	1 000 000	1 000 000
Invest Finance Bank	1 000 000	1 000 000
Ipak Yo'li Banki	500 000	1 000 000
Xalq banki	500 000	1 000 000
NBU	500 000	1 000 000

Ilova yuklab olishlarining umumiy hajmi qariyb 43 % ga oshdi. Banklar bosqichma-bosqich raqamli xizmatlarga o'tishi natijasida operatsion xarajatlar qisqarib, rentabellik darajasi sezilarli ravishda yaxshilandi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlari moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asosida bank xizmatlarining rivojlanishi aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay, tezkor hamda arzon moliyaviy xizmatlarni taqdim etish imkonini yaratmoqda. Natijada moliyaviy inklyuzivlik darajasi oshib, iqtisodiy faollikning kengayishiga xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mobil banking, internet banking va boshqa raqamli platformalar orqali bank xizmatlari ommalashib, mijozlar bazasining kengayishiga hamda banklar rentabelligining ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarini joriy etish jarayonida texnologik, institutsional va ijtimoiy omillarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, internetga bog'liqlik, axborot xavfsizligi muammolari, ayrim aholi qatlamlarining raqamli xizmatlarga moslashuv darajasining pastligi kabi muammolar ushbu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi.

Takliflar:Raqamli infratuzilmani rivojlantirish.Bank xizmatlaridan keng foydalanishni ta'minlash uchun yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini, ayniqsa, qishloq hududlarida yanada rivojlantirish zarur.

¹⁶ Turovov T.S. Raqamli bank xizmatlari rivojlanishining bank va moliya tizimiga ta'siri. "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali,12-son,2025. 797-b.

Axborot xavfsizligini kuchaytirish.Raqamli bank xizmatlarida kiberxavfsizlikni ta'minlash, fishing va firibgarlik holatlarining oldini olish uchun zamonaviy himoya tizimlarini joriy etish lozim.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish.Ayniqsa, katta yoshdagi aholi o'rtasida raqamli bank xizmatlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha targ'ibot va o'quv dasturlarini kengaytirish kerak.

Fintech kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish.Tijorat banklari innovatsion mahsulotlar yaratish va xizmatlar sifatini oshirish maqsadida fintech kompaniyalar bilan integratsiyani rivojlantirishi lozim.

Gibrid bank modelini rivojlantirish.An'anaviy va raqamli xizmatlarni uyg'unlashtirgan gibrid bank tizimini rivojlantirish orqali turli toifadagi mijozlar ehtiyojlarini qondirish mumkin.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.Raqamli bank xizmatlarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarur.

Mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlarni kengaytirish.Sun'iy intellekt, big data va boshqa texnologiyalar asosida individual takliflar ishlab chiqish orqali mijozlar sodiqligini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2.Лямин Л.В. Применение технологий электронного банкинга. Рискориентированный подход, серия Библиотека Центра исследований платежных систем и расчетов — Издательство: КноРус, 2015

3.Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 535-536 bb

4. Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2019. 56 b.

5.Mirpulatova L.M. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat – Toshkent, 2025. – 13 b.

6.Hsu, Po-Hsuan, Xuan Tian, and Yan Xu, 2014, Financial development and innovation: Cross-country evidence, Journal of Financial Economics 112, 116–135

7. Alkhowaiter, W. A. (2020). Digital payment and banking adoption research in Gulf countries: A systematic literature review. *International Journal of Information Management*, 53, 102102.

8. <https://gulfbusiness.com/here-are-the-top-5-tools-and-technologies-for-smart-banking/>

9. Shetty, M. D., & Nikhitha, M. K., (2022). Impact of Information Technology on the Banking Sector. *International Journal of Management, Technology, and Social Sciences (IJMTS)*, 7(2), 634-646

10. <https://www.startus-insights.com/innovators-guide/banking-technology-trends/>

11. Mirpulatova L.M. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat – Toshkent, 2025. – 14 b.

12. Xodjimamedov A.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank innovatsiyalarini rivojlantirish masalalari. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat – Toshkent shahri, 2024. – 12 b.

13. Infocom statistikasi – infocom.uz

14. Turov T.S. Raqamli bank xizmatlari rivojlanishining bank va moliya tizimiga ta'siri. "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali, 12-son, 2025. 797-b.